

TERMIZDA "ZULFIYA" NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTINING SHAHAR SARALASH BOSQICHI BO'LIB O'TDI



TERMIZDA "ZULFIYA" NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTINING SHAHAR SARALASH BOSQICHI BO'LIB O'TDI

Kuni kecha "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotiga tavsiya etilgan nomzodlarning ishlari shahar komissiyasida ko'rib chiqildi.

Shahar mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari Mexriniso Kenjaeva tanlovni ochib berib, nomzodlar ishlarini ko'rib chiqishdaadolat mezonlariga e'tibor berilishi, tanlovda eng zukko, bilimdon, tashkilotchi qizlarni saralab olinishini bildirib, ishtirokchilarga omad tiladi.

Ushbu tanlov qizlarning ilmiy izlanishlari, ta'limdagi muvaffaqiyatlari, mamlakat va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarida erishgan yutuqlarining o'ziga xos taqdimoti ham bo'ldi.

Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan har bir qizlarning chiqishlarini, ularning

tayyorlagan ishlari, egallagan yutuqlari, zabit etgan marralarini odilona baholandi.
O'z o'rnilida Zulfiyaxonimdek chin ma'noda yetuk inson bo'lib yetishishni maqsad
etgan qizlar o'z mahoralarini har bir yo'nalishda ko'rsatib bera olishdi.

